

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 821+811.512+141.31

“MAKORIM UL-AXLOQ” AGIOGRAFIK ASAR NAMUNASI

ПРИМЕР АГИОГРАФИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ “МАКОРИМ УЛ-АХЛОК”

EXAMPLE OF AN AGIOGRAPHIC WORK “MAKORIM UL-AXLOQ”

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi,

Annotatsiya

Mazkur maqolada Xondamir qalamiga mansub “Makorim ul-axloq” asarining badiiy xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Shu bilan bir qatorda jahon adabiyotshunosligida keng tarqalgan agiografik asarlarning o'ziga xos jihatlari qisqacha yoritilgan. “Makorim ul-axloq” asarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq lavhalar yoritilganligi sababli, mazkur obrazga agiografik jihatdan e'tibor qaratildi. Asarning agiografik jihatlari jahon adabiyotshunosligidagi mazkur manbalarga qo'yilgan talablar asosida misollar orqali ochib berilgan.

Аннотация

Данной статье рассказывается о художественных особенностях произведения “Makorim ul-axloq”, принадлежащего перу хондамира. Параллельно кратко освещаются специфические аспекты агиографических произведений, широко распространенных в мировом литературоведении. В связи с тем, что в произведении “Makorim ul-axloq” освещены сцены, связанные с жизнью и деятельностью Алишера Навои, этому образу уделено агиографическое внимание. Агиографические аспекты произведения раскрываются на примерах, основанных на требованиях, предъявляемых к этим источникам в мировом литературоведении.

Abstract

This article talks about the artistic features of the work “Makorim ul-axloq”, which belongs to the khondamir pen. In parallel, the peculiarities of the agiographic works, which are widespread in world literary studies, are briefly covered. The work “Makorim ul-axloq” focused agiographically on the image in question, as plaques related to the life and work of Alisher Navoi were illuminated. The agiographic aspects of the work are revealed through examples based on the requirements for these sources in World Literary Studies.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, agiografiya, obraz, siyra, manoqib, holot, ilohiylik, hadis, iqtibos badiiy san'ati.

Ключевые слова: классическая литература, агиография, образ, сира, манакиб, холот, божественность, хадис, искусство цитирования.

Key words: classical literature, agiography, image, urine, manoqib, holot, divinity, hadith, quote fine art.

KIRISH

Alisher Navoiy hayoti va faoliyati haqida ko'plab asarlar yaratilgan va yaratilmoqda. Shoir ijodiy faoliyatini o'rganish aslida Navoiy hayotlik chog'idan boshlangan edi. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” asari o'Zining ishonchiligi va shoir hayotining barcha jihatlari qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur asar 1501-yilda yozib tugatilgan bo'lib, Alisher Navoiy vafoti bilan bog'liq tafsilotlarning berilishi jihatidan boshqa asarlardan farqlanadi. Xondamirning onasi mashhur tarixnavis Mirxodning qizi bo'lgan. Mirxodning tarbiyasida kamol topgan yosh xondamir tarix ilmini chuqur egallaydi. Alisher Navoiy Hirotda kelgandan so'ng shoir xizmatiga kirishadi va Navoiyning vafotiga qadar uning qaramog'ida faoliyat olib boradi. Ma'lum davr mobaynida Badiuzzamonga vazirlik qilgan, shu sababli hukumdor taklifi bilan “Habib us-siyar” asarini yaratadi. Alisher Navoiy vafotidan so'ng mamlakatdagi siyosiy keskinlikning oshishi, mamlakatda hokimiyat uchun kurashlar kuchayishi natijasida Hindistonga Zahiriddin Muhammad Bobur oldiga boradi. Boburdan so'ng taxtga o'tirgan Humoyun saroyida mulozim sifatida faoliyat olib boradi. Hukumdorga bag'ishlab “Qonuni Humoyuniy” asarini yaratadi. Shundan so'ng Xondamirga “Amir ul-muarrixin” ya'ni, “Tarixchilar amiri” laqabi beriladi. Xondamirning vafotidan so'ng vasiyatiga ko'ra Dehliy yaqinidagi Xusrav Dehlaviy va Nizomiddin Avliyo qabrlari yonida dafn etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Makorim ul-axloq" asarining yagona qo'lyozma nusxasi hozirgi kunda Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Mzkur asar 1941, 1948, 1967-yillarda bir necha bor nashr etilgan. P.Shamsiyev va M.Faxruddinova tomonidan tayyorlangan nusxlarda zamon talabidan kelib chiqqan holda qisqartirishlar mavjud edi. Ibodillo Odilov 1939-yildagi asrning mikrofilimi asosida asarning yana bir nusxasini nashrga tayyorlaydi. Afg'onistonlik adabiyotshunos olim Abdulg'ofur Bayoniy tomonidan 1981-yilda asarning to'liq matni qayta kitlanib nashr etilgan. "Makorim ul-axloq" asarining agiografik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida biografik, hamda qiyosiy metodlarga murojaat qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Uzoq yillar Alisher Navoiy xizmatida bo'lgan Xondamir shoir hayotlik chog'idayoq "Makorim ul-axloq" asarini yozishni boshlagan edi. "Ammo bu qoramalar oqqa ko'chirilmadan va idrok ahlining fayzli nazarlariga tushmasdan oldinroq **"Ey, xotirjam [sokin] jon! [Ato etilgan ne'matlardan] rozi bo'lgan [va Alloh tomonidan] ham rozi bo'lingan holingda. Rabbining [huzuri]ga qaytgin (Qur'oni karim. "Fajr" surasi, 27-oyat)"** nidosi ushbu oliymaqom Amirning aql qulog'iga yetib bordi va [ul hazrat] haqning chaqirig'iga "labbayka" javobini berib, uning aziz ruhi qushi nomoddiy olamdan makon topdi" [1. 14]. Yuqoridagi jumalardan anglashiladiki Xondamir asarni yakunlagan vaqtda Alisher Navoiy vafot etadi. Natijada muallif tugallangan asarni Navoiy vafoti bilan bog'liq lavhalarni qo'shish bilan boyitadi va yakunlaydi. Ayna shu jarayon asarning agiografik xususiyat kasb etishiga sabab bo'ladi. Ya'ni asarning oxirgi qismlarigina qo'shilmaydi, oldin yakunlangan ayrim o'rinlar qayta ishlanadi. Buni muqaddimada berilgan quyidagi jumalardan ham anglab olishimiz mumkin. "... hazrat sultonning yaqin kishisi, "qashshoqlikka boy-u saxovatda botir bo'lib chiqdi", degan gapga muvofiq keluvchi oliy hazrat Nizom ul-haq val-haqiqat vad-dunyo vad-din Amir Alisher (**Alloh taolo uning ruhini shod qilsin va siddiqlar orasida uning fayz-u futuhini ko'paytirsin**)". Mazkur jumalarda alohida ajratib qo'yilgan qisimga e'tibor qaratsak bunday fikrlar vafot etgan insonga nisbattan qo'llanilganligini anglaymiz. Shu bilan bir qatorda ma'lum bir tarixiy shaxslarga bunday jumalarning qo'llanilishi ularning e'tiqodiy jihatdan boshqalardan yuqoriroq turishni ham anglaymiz. (1-jadvalga e'tibor qarating). "Agiografik asar, avvalo, muayyan tarixiy shaxs hayoti va va faoliyatini aks ettiruvchi asardir. Ammo bu tarixiy shaxs oddiy shaxs bo'lmasdan, o'zida avliyolik sifatlarini mujassamlashtirgan, u yoki bu dinga e'toqd qilgan avliyosifat shaxsdir" [2. 9]. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, "Makorim ul-axloq" asarida muallif voqealarni ro'yi rost tasvirlaydi. Buni Alisher Navoiy bilan bog'liq hikoyatlarda ko'rishimiz mumkin. Xondamir voqealarni shunday tasvirlaydiki asar ma'lum bir tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini yoritgan bo'lsa-da, badiiy jihatlari bilan kitobxonni hayajonga solidi. Natijada o'quvchi ko'z o'ngida Navoiy obrazi komillikka yetishgan inson sifatida gavdalanadi. Asarning muqaddimasidan to so'ngiga qadar har bir voqeada badiylikning yaqqol namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. "Qog'ozga tushirilgan qoramalarimni oqqa ko'chirib, o'zidan barokatlar sochuvchi ul zotning qanday kasal bo'lganliklari va qay holatda vafot etganlarini bayon lavhiga bitishni o'yimga keltirgan chog'og'im qog'oz yumshab, siyoh quyulasha boshladi va qora salla o'ragan qalam qo'ynidagi so'zlarni bayon qilish uchun tilga kirib shunday dedi" [1. 15].

Xondamir Alisher Navoiyning tug'ilishi bilan bog'liq lavhalardan boshalab uning kelajakda ulug' inson bo'lishi ilohiy qismat ekanligiga urg'u beradi. Mana shunday hollarda asarning agiografik xususiyatlari yorqinroq namoyon bo'ladi. "Tarixnavislar va rivoyatchilarning nurli ko'ngillariga noma'lum qolmasinki, ul hazrat tavalludi quyoshning chiqish vaqti bo'lgan ramazon oyining o'n yettinchi kuni cheksiz sharaf va manzilatga egadir. Chunki ko'pchilik tafsirchilarning fikricha, Mannon [marhamatli, iltifotli, mehribon – yaratganning sifatlaridan bir] mulkidan so'nggi payg'ambar alayhi salototga vahiy va Qur'onning tushurilishi ham ana shu kuni yuz bergan bo'lib, payg'ambar alayhissalom hayoti haqidagi qissa yozuvchilarning barchalarining ayitshlariga qaraganda... Badr jangi ham ana shu kuni yuz bergan. Bir guruh tarixchilarning taxminlaricha, Shohimardonning muborak boshiga ham xuddi ana shu kuni qilich solinib, ul zotning shahodatga yetishishiga sabab bo'lgan. Shuningdek, ayrim ulamolarning fikrlaricha, qadr kechasi ham ramazon oyining o'n yettinchi kechasiga to'g'ri keladi" [1. 21-22]. Bunday yondashuv agiografik asarlar uchun xos hisoblanadi. "...barcha agiografik asarlarga xos bo'lgan umumiy o'xshashlik ularda yaratilgan avliyo obrazida O'rta asr ideal insonining obrazini shakllantirish prinsplarining ishlab chiqilganligidan iborat" [2. 9]. Asar mutolaasiga kirishga kitobxon asrda tasvirlanayotgan shaxs

ADABIYOTSHUNOSLIK

omma singari emasligi, aksincha boshqalardan farqlanishini anglab oladi. Shu sababli ham asrning keying o'rinlarida tasvirlangan voqea-hodislarda mubolag'aga yo'l qo'yilmaganligini, mazkur obraz bilan bog'liq hodisalar yaratgan tomonidan unga berilgan karomatlar natijasida sodir bo'lganligiga ishonadi. Bundan tashqari muallif asarda Alisher Navoiy obraziga shu qadar keng e'tibor qaratganki, asar o'zida "siyra" janriga xos xususiyatlarni ham namoyon etgan. "Siyra (arab. – hayot yo'li, tarjimai hol) – Muhammad (s.a.v) hayot yo'lini bayon qilishga bag'ishlangan, ilk islom davridan keyin vujudga kelgan diniy-tarixiy asarlarning umumiy nomi. Dastlab siyralar ko'p bo'lgan, ularning anchasi yo'qolib ketgan" [3. 418]. Takidlash lozimki, siyra janridagi asarlar ham agiografik asarlar sirasiga kiradi. Shu bilan bir qatorda takidlash lozimki, siyra janridagi asarlar katta agiografik asar hisoblansa, "Makorim ul-axloq" singari manbalar o'rta agiografik asarlar qatoriga kiradi.

"Makorim ul-axloq" asarining ikkinchi maqsadida Xondamirning asarda tasvirlanayotgan obrazni dastlab olim sifatida tasvirlaydi. Natijada kitobxon mazkur qahramonni ilm jihatda boshqalarda ajralib turishini angelaydi. Muallif shundan so'ng asosiy maqsadga o'tgan holda olim inson haqidagi qarashlarni bayon etadi. Qiyomat kuni ular gunohkorlarni shafolat qilishida olimlar payg'ambarlar bilan bir qatorda turishini takidlab o'tadi. Bu jarayonda Xondamir o'z so'zlarining isboti sifatida iqtibos badiiy san'atidan foydalangan holda Muhammad alayhissalom tomonidan bildirilgan fikrlarni keltirib o'tadi. "Salovatlarning mukammali va salomlarning afzali ul zotga bo'lsin, shunday deganlar "qiyomat kuni uch toifa shafolat qiladilar: payg'ambarlar, olimlar, shahidlar". "Shuningdek, payg'ambar alayhissalom yana bir joyda olimlar to'g'risida shunday deydi: "Kim olimning orqasida namoz o'qisa, go'yo payg'ambarning orqasida namoz o'qigandek bo'ladi". Xondamir olimlarning martabasi haqida shu qadar ko'p hadislarni keltiradiki, hatto "Ummatimning ulamolari go'yo Bani Isroil payg'ambarlari kabi dirlar" degan iqtibosni keltirish orqali o'quvchida olimlarga nisbatan bo'lgan munosabatni o'zgartiradi. Shu bilan bir qatorda muallif ikkinchi maqsadda aytgan barcha fikrlarini keyingi maqsadlarda Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq lavhalar orqali isbotlab keladi. Natijada asar mutolaasigacha kitobxon Navoiyni shoir yo yozuvchi sifatida tanigan bo'lsa, asarni o'qigacha qahramonga nisbatan qarashlari o'zgaradi. Kitobxon Navoiy siymosini ilohiylikka yo'g'rilgan holda e'tirof etishni boshlaydi. Bunga sabab asarda keltirilgan har bir lavha e'tiqodiy qarashlar bilan bog'liq holda berilishi va Navoiy faoliyati orqali ularning mohiyati o'quvchiga yetkazib beriladi. Bu esa "Makorim ul-axloq" asarining agiografik xususiyatlarini yanada oshiradi.

"Makorim ul-axloq" asarining muqaddima qismidan tortib o'n maqsad va xotima qismida agiografik asraga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan keltirilgan hikoya shaklidagi Alisher Navoiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq voqelarda ham bu zotning e'tiqodiy jihatdan atrofidagi odamlardan ajralib turishi namoyon bo'ladi. Misol uchun, har kun namozdan so'ng omma bilan ma'lum vaqt suhbatlashib turgan Navoiy bir kun ibodatdan keyin shoshilib masjidan chiqib ketadi. Bundan hayratlangan odamlar buning sababini so'rganlarida shunday javob oladilar: "Masjidga kelayotgan chog'imda falon joyda to'xtab, tahorat qilgan edim. Jamoat safida turganimda yelkamga yopishib olgan bir cho'molini ko'rdim. Bildimki, tahorat qilgan joyimda menga ilashib qolgan ekan. Agar yelkamdan tushib ketib, unga biror ozor yetsa va uyiga boradiga yo'lni topolmay qolsa, uvoliga qolamanmi, deb qo'rqdim. Shuning uchun ham namoz tugaganidan so'ng shosha-pisha o'sha tahorat qilgan joyimga bordim-da, uni o'z uyasining oldiga qo'ydim va ko'nglimni jabr-zulm qilib qo'yish xavotiridan xalos qildim" [1. 100]. Bu so'zlarni eshitganlar Alisher Navoiyning rahmdilligiga tasannolar aytishdi. Mana shunday voqealarning Xondamir tomonidan bayon etilishi asarning badiiy qimmatini oshirish barobarida agiografik xususiyatlarni ham namoyon etadi.

Asarning oltinchi maqsadida Alisher Navoiyning e'tiqodiy qarshlari bilan bog'liq lavhalarning keltirilishi asarning agiografik jihatlarini yana bir bor namoyon etadi. Mazkur maqsadda avval islom dinining besh arkoni haqida so'z yuritilib so'ng ijodkorning ijodiy niyati asosida Nizomiddin Mir Alisher hayoti bilan bog'liq lavhalar keltiriladi. Navoiy din arkonlarini bajarishda har doim astoydil harakat qilgani va boshqalarni ham bu borada sobitqadam bo'lishga undaganligi tasvirlanadi. Bu borada nafaqat oddiy xalqqa balki saroy amaldorlariga ham namuna bo'lgan. Hatto ayrim vaqtda mazkur ishga e'tiborsiz bo'lganlarni jazolagan. "Shuningdek, hidoyat oshyoni bo'lgan saroy xizmatchilarini namozni o'tashga rag'batlantirish, bordi-yu ulardan birortasi shariat ahkomlariga zid ish qiladigan bo'lsa, uni shariat-qonun qoidlari asosida jazoga tortish uchun bir muhtasib ham tayinlagan edilar [1. 75]. Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatni isloh qilish, ya'ni yuqori tabaqa

vakillarining ham haq yo'lda sobitqadam bo'lishlari orqali omma uchun ibrat bo'lishlarini taminlash edi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida vazirlar haqida so'z yuritganda ham ularni adolatli bo'lishga chaqirganligi ham bejizga emas. Zero agiografik adabiyotdan ko'zlangan asosiy maqsad mazkur turdagi asarlarning qahramonlari misolida sog'lom e'tiqodiy qarashga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalashdan iborat. Xristian, buddaviy va musulmon agiografiyasida bu borada mushtaraklikni ko'rishimiz mumkin. Chunki barcha e'tiqodiy qarashlarda buzg'unchilikdan qaytariladi, yaxshilik ulug'lanadi. "Agiografik adabiyot, umuman olganda, jahonda keng tarqalgan bo'lib, u asosan, diniy g'oyalarning mazmun-mohiyatini omma orasiga yoyish, nabiyar va valiyar hayotini tasvirlash orqali xalq mehr-muhabbatini qozonishga mo'ljallangan" [4. 20]. Asarning boshidan so'ngiga qadar bunday lavhlarning keltirishi Xondamirning Alisher Navoiyga nisbatan hurmatini namoyon etish bilan bir qatorda mazkur asarning Sharq adabiyotidagi o'rta agiografik asarlar qatoriga kiritish mumkinligini ham ko'rsatadi.

XULOSA

"Makorim ul-axloq" asari o'zida agiografik xususiyalarni namoyon etganligi, shu bilan bir qatorda Sharq adabiyotidagi janrlar, xususan, manoqib, maqomot, siyra, holot kabi yo'nalishdagi manbalarga xos xususiyatlarni namoyon etganligi sababli agiografik asarlar sirasiga kiritish mumkin deb hisoblaymiz.

1-jadval

1	a.r.	Alayhir-rahmah	Allohning rahmati bo'lsin
2	a.s.	Alayhis-salom	Allohning salomi bo'lsin
3	k.v.	Karramallohu-vajhahu	Alloh uning yuzini mukarram qilsin
4	r.	Rahimahullohu	Alloh unga rahm qilsin
5	raz.	Raziyallohu anhu	Alloh undan rozi bo'lsin
6	r.a.	Rahmatullohi alayhi	Allohning rahmati bo'lsin
7	r.r.	Ravvahallohu ruhahu	Alloh uning ruhini shodlantirsin
8	r.t.	Rahimahullohu taolo	Alloh taolo unga rahm qilsin
9	r.t.a.	Raziyallohu taolo anhum	Alloh taolo ulardan rozi bo'lsin
10	r.t.r.	Rahimahullohu taolo ruhahu	Alloh taolo ruhiga rahm qilsin
11	s.a.v.	Sallallohu alayhi vasallam	Allohning salavoti va salomi bo'lsin
12	s.r.a.	Salavotur-rahmoni alayhi	Allohning salavoti bo'lsin
13	s.t.	Subhonahu va taolo	Alloh pokdir va oliydir
14	q.	Qaddasallohu	Alloh muqaddas qilsin
15	q.a.	Qaddasa arvohahum	Alloh ularning ruhlarini muqaddas qilsin
16	q.a.	Qaddasallohu asrorahum	Alloh ularning sirlarini muqaddas qilsin
17	q.s.	Quddisa sirruhu	Uning siri muqaddas qildi
18	q.s.	Qaddasallohu sirrahu	Alloh sirrini muqaddas qilsin
19	q.r.a.	Qaddasallohu ruhahul aziz	Alloh uning aziz ruhini muqaddas qilsin
20	q.s.a.	Quddisa sirruhum aziz	Ularning aziz sirlari muqaddas qilindi
21	q.t.a.	Qaddasallohu taolo asrorahum	Alloh taolo ularning sirlarini muqaddas qilsin
21	q.t.r.	Qadasallohu taolo ruhahu	Alloh taolo uning ruhini muqaddas qilsin
22	q.t.s.	Qadasallohu taolo sirrahu	Alloh taolo uning sirrini muqaddas qilsin
23	v.a.	Vallohu a'lam	Alloh bilguvchiroq
24	n.b.	Nafa'ano bihima	Ikkalasi tufayli Alloh bizga naf yetkazsin
25	n.m.n.	Nuvvira marqaduhu nuran	Uning qabri nurga to'lsin
26	n.m.n.	Navvara marqaduhu nuran	Alloh qabrini nurga to'ldirsin
27	r.t.a.a	Rizvonullohi taolo alayhim aj'main	Ularning barchasidan Alloh taolo rozi bo'lsin
28	r.a.a	Rizvonullohi alayhim aj'main	Ularning barchasidan Alloh rozi bo'lsin
29		Yuzoru va yutabarraku bihi	(Qabri) ziyorat qilinadi va tabarruk sanaladi

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. Нашрга тайёрловчи Комилжон Раҳимов. – Тошкент: 2016.

ADABIYOTSHUNOSLIK

2. Назаров Б. Али Муҳаммад Мухлиснинг "Ҳолнома" асари – XVI-XVII аср дариёзабон насрининг намунаси. Фил.фан.ном.дисс.автореферати. – Тошкент: 1996.
3. Ислам энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
4. Назаров Б. Ислам агиографияси тизимида мақомотнинг ўрни ва унинг бадиий-услубий хусусиятлари (Баҳоуддин Нақшбанд мақомотлари асосида). Филол.фан.док... дисс. – Тошкент, 2000.